



Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal

MUASSISLAR: Beruniy tuman hokimligi

"Tafakkur-Tamaddun" OOO

"Beruniy avlodlari" jamoat fondi

HAMKORLARIMIZ:

O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi

Qoraqalpoq davlat universiteti

Urganch davlat universiteti

TAHRIR HAY'ATI:

BOSH MUHARRIR:

Munavvara KURBANBAYEVA

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Anvar ALLAMBERGENOV, fil.f.f.d (PhD)

TEXNIK MUHARRIR:

Islombek ABDIKHAKIMOV, y.f.f.d (PhD)

BO'LIM MUHARRIRI:

Muqaddas KURBANBAYEVA

Akmal SAIDOV, y.f.d., prof., akad.

Qahramon QURONBOYEV, s.f.d., prof.

Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof. (Turkiya)

Roman GOPAL, fil.f.f.d (PhD), (Hindiston)

Azizulloh AROL, fil.f.f.d (PhD), (AQSH)

Almagul BAYRIYEVA, s.f.d., (DSc)

Zuhra REYMOVA, y.f.d., (DSc)

Karlig'ash UMAROVA, y.f.d., (DSc)

Xəlil İsmayıl oğlu İsmayilov, t. f.d, prof., (Ozarbayjon)

Anvar ABDULLAYEV, t.f.f.d, dots.

Makset KARLIBAYEV, t.f.d., k.i.x.

Kozimbek TUXTABEKOV, t.f.d., (PhD)

Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD), k.i.x.

Shoira NURULLAYEVA, t.f.n., dots.

Indira JOLLIBEKOVA, t.f.d., (PhD)

Mamlakat JUMANIYAZOVA, t.f.n., dots.

Konul Bunyadzoda, falsafa fanlari doktoru, (Ozarbayjon)

Baxtiyor KARIMOV, fal.f.d., prof.

Marat NIYOZIMBETOV, fal.f.d.

Odilbek RADJAPOV, fal.f.f.d., (PhD)

Mangubek O'RAZMETOV, fal.f.d., (PhD)

Zarifboy DO'SIMOV, fil.f.d., prof.

Olmos ULVI Binnatova, fil.f.d., prof., (Ozarbayjon)

Azamat PRIMOV, fil.f.d., (DSc), prof.

Nasibullina Nurida Shaydullovna, fil.f.n., (Rossiya Federatsiyasi)

Shukurjon Norbayeva, fil.f.d., (DSc)

Bekposhsha RAXIMOVA, fil.f.n., dots., (PhD)

Qabil MAMBETOV, fil.f.f.d., (PhD)

Vahob RAHMONOV, fil.f.n., dots.

Doniyor YULDASHEV, fil.f.d (DSc)

Farrux Abbas o'glu Rustamov, p.f.d, prof. (Ozarbayjon)

Qozoqboy YO'LDOSHEV, p.f.d., prof.

Qaxramon IBADULLAYEV, p.f.d., (DSc)

Masharib ABDULLAYEV, s.f.d., (DSc), k.i.x.

Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)

Rana Hamid qızı Qadirova, psixol.f.d., prof. (Ozarbayjon)

Nargis ATABAYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Dilafroz QARSHIYEVA, psixol.f.d., (DSc)

JAMOATCHILIK KENGASHI:

Sirojiddin SAYYID

Muhammad ALI

Kengesboy KARIMOV

Iqbol MIRZO

Qurbon SHONIYOZOV

O'rozboy ABDURAHMONOV

Murotboy JUMANOV

Adabiy maslahatchi:

Guliston MATYOQUBOVA

Rassom:

Alibek ABDURAHMONOV

Sahifalovchi-bezovchi: G'iyosiddin O'NAROV

Manziligimiz: Qoraqalpog'iston Respublikasi,

Beruniy tumani

Web-sayt: <https://jurnal.tamaddunnuri.uz>

e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com.

Telegram kanali: <https://t.me/tamaddunnuri>

Tel.: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.

Qog'oz bichimi 60x84 ½. Nashriyot hisob tabog'i 28.

Indeks – 960. ISSN 2181-8258. "ADAD PLYUS" MCHJ

bosmaxonasida chop etildi. Adadi 300 dona.

Bosishga 2026-yil 30-mayda ruxsat etildi.

Toshkent shahri, Chilonzor ko'chasi, 28-uy.

2026-yil, 5-son 2-qism (80).

Ushbu son "Tamaddun nuri" jurnali tahririyatining

kompyuterida sahifalandi. Buyurtma №36.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Tamaddun nuri" dan olindi deb

izohlanishi shart. Matn hamda reklamalardagi ma'lumotlarning

to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldir. Tahririyatga kelgan

qo'lyozmalar tahrirlanadi, taqriz qilinmaydi va muallifga

qaytarilmaydi.



"Tamaddun nuri" jurnali Google Scholar

bazasida indekslanadi. Bu esa jurnalning ilmiy nufuzini oshirish va

mualliflarning ilmiy ishlarini keng miqyosda targ'ib qilishga yordam

beradi. Google Scholar orqali tadqiqotchilar va olimlar "Tamaddun nuri"


jurnalida chop etilgan maqolalarni qidirib topish va ularga havola

berish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Tahririyat Crossref DOI ning rasmiy a'zosi hisoblanadi va

10.69691 DOI prefiksiga ega. Har bir nashr va ilmiy

maqolaga individual Crossref DOI raqami beriladi.




10.69691 DOI



INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

ISSN-2181-8258



Impakt faktor-9.347

SLIB.UZ

BIZNI IJTIMOYIY TARMOQLARDA QUYIDAGI MANZILLARDA KUZATING:



**KOREYS TILIDA “GWENCHHANAYO” (괜찮아요)
IBORASINING QO‘LLANILISHIDA PRAGMATIK
TO‘SIQNING YUZAGA CHIQISHI**

¹Usmanova Shoira, filologiya fanlari doktori, Toshkent davlat
sharqshunoslik universiteti professori

²Qutbiddinova Moxiraxon Faxriddin qizi

**THE EMERGENCE OF PRAGMATIC BARRIERS IN
THE USE OF THE EXPRESSION**

**“GWENCHHANAYO” (괜찮아요) IN THE KOREAN
LANGUAGE**

¹Shoira Usmanova, Doctor of Philological Sciences, Professor at
Tashkent State University of Oriental Studies

²Qutbiddinova Moxiraxon Faxriddin qizi

**ВОЗНИКНОВЕНИЕ ПРАГМАТИЧЕСКОГО
БАРЬЕРА ПРИ УПОТРЕБЛЕНИИ ВЫРАЖЕНИЯ
“GWENCHHANAYO” (괜찮아요) В КОРЕЙСКОМ
ЯЗЫКЕ**

¹Усманова Шоира, доктор филологических наук, профессор
Ташкентского государственного университета востоковедения

²Кутбиддинова Мохирахон Фахриддин кызы

Annotatsiya: Mazkur maqolada koreys tilidagi gwenchhanayo (괜찮아요) iborasining qo‘llanilishi misolida lingvomadaniy xatolar va kommunikativ-pragmatik to‘siqlar tahlil qilinib, ularni yuzaga chiqaruvchi lisoniy va madaniy omillar ochib beriladi. Shuningdek, koreys tilining ayrim murakkab jihatlari ayrim til sathlari orqali ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: koreys tili, lingvomadaniy xato, pragmatik to‘siq, madaniyatlararo muloqot, nutq vaziyati.

Abstract: This article analyzes linguocultural errors and communicative-pragmatic barriers through the example of the use of the Korean expression gwenchhanayo (괜찮아요), and reveals the linguistic and cultural factors that cause them. In addition, some complex aspects of the Korean language are demonstrated through different language levels.

Keywords: Korean language, linguocultural error, pragmatic barrier, intercultural communication, speech situation.

Аннотация: В данной статье на примере употребления корейского выражения gwenchhanayo (괜찮아요) анализируются лингвокультурные ошибки и коммуникативно-прагматические барьеры, а также раскрываются



<https://orcid.org/0009-0005-2608-4577>

e-mail:

usmanovashoira89@gmail.com



<https://orcid.org/0009-0005-2608-4577>

e-mail:

Makkiii2008@gmail.com



языковые и культурные факторы, способствующие их возникновению. Кроме того, через различные языковые уровни демонстрируются некоторые сложные аспекты корейского языка.

Ключевые слова: корейский язык, лингвокультурная ошибка, прагматический барьер, межкультурная коммуникация, речевая ситуация.

Kirish. Madaniyatlararo muloqotda ko'pincha lingvomadaniy xatolarga duch kelinadi. Mazkur xatolar turli madaniy omillar ta'sirida tushunmovchiliklar va fikr ifodalashdagi chekinishlar tufayli yuzaga keladi. Bunday xatolar muayyan madaniyatda mavjud bo'lgan, ammo boshqa madaniyatda noma'lum bo'lgan, so'z, jumla, odat yoki munosabatlarni o'z ichiga olishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, madaniyatlararo muloqotning muvaffaqiyatli amalga oshishiga ta'sir ko'rsatib, pragmatik to'siqlarga olib kelishi mumkin.

Shaxslararo kommunikativ faoliyatda yuzaga keladigan pragmatik to'siq antroposentrik tilshunoslikning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan pragmatiklingvistikaning diqqatga sazovor masalalaridan biri hisoblanadi. Pragmatik to'siq nutq egasi (adresant) tomonidan amalga oshirilgan nutqiy akt mazmunining uni qabul qiluvchi (adresat) tomonidan (to'g'ri) anglanmay qolishiga sabab bo'luvchi hodisadir. Pragmatik to'siq nutq subyektiga tegishli matn orqali ifodalanayotgan mazmun (propozitsiya) hamda maqsad (intensiya)ning adresat tomonidan to'g'ri va aniq o'zlashtirilishiga "xalaqit" qiladi¹.

Ma'lumki, koreys tili yoziv jihatdan o'rganilishi qulay til bo'lsa-da, lisoniy o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra murakkab til hisoblanadi. Koreys tilining murakkabligi quyidagi til sathlarida kuzatiladi:

- hurmat va nazokat darjalariga boyligi;
- fe'l shakllarining ko'pligi;
- grammatik markerlar;
- talaffuzdagi differensiyalar;
- xitoy tilidan o'zlashgan so'zlarning sermahsulligi;
- madaniy kontekstga bog'liq nutq shakllari.

Asosiy qism. O'zbek tili sohiblari uchun koreys tilining grammatik tomonlari, xususan, morfologiya va sintaksis darajasi qulay bo'lishi

mumkin. Chunki, har ikkala til ham geneologik tasnifga ko'ra Oltoy tillari oilasiga, morfologik tasnifga ko'ra esa agglyutinativ tillar guruhiga kiradi. Biroq koreys tilini o'rganishda so'z boyligi, hurmat va nazokat shakllari hamda talaffuz asosiy qiyinchilik tug'diradi. Bular esa, tabiiy ravishda muayyan pragmatik to'siqlarni yuzaga chiqaradi. Pragmatik to'siqlar aksariyat hollarda madaniy kontekstga bog'liq nutq shakllarida uchraydi. Ana shunday nutq shakllaridan biri koreys tilida keng foydalaniladigan "괜찮아요" [gwenchhanayo] iborasi sanaladi.

Koreys tilida "괜찮아요" [gwenchhanayo] juda sermahsul qo'llaniladigan ibora bo'lib, u o'zbek tiliga nutq vaziyatidan kelib chiqqan holda "yaxshi", "mayli", "hechqisi yo'q", "muammo emas", "men yaxshiman", "bo'ladi" deb tarjima qilinadi.

"괜찮아요" [gwenchhanayo] leksemasining semantik maydoni quyidagi ma'nolardan tashkil topadi:

1) "Yaxshiman" ma'nosi kimdir hol-ahvol so'raganda ishlatiladi:

A: 괜찮아요? [gwenchhanayo?] Yaxshimisiz?

B: 네, 괜찮아요. [ne, gwenchhanayo] Ha, yaxshiman.

이 여자가 괜찮네요 [i yojaga gwenchhanneyo] Bu qiz yaxshi qiz ekan.

Yoki:
A: 이 옷 어때요? [i ot otteyo?] Bu kiyim qanday?

B: 괜찮아요. [gwenchhanayo] Yaxshi, yoqdi.

A: 교실이 추워요? [gyoshiri chuwoyo?] Dars xonasi sovuqmi?

B: 아니요 괜찮아요 [aniyo gwenchhanayo] Yoq, yaxshi.

¹ Atamuradov Sh. O'zbek-turk muloqot madaniyatida pragmatik to'siqning ifodalanishi: Filol. fan. bo'yicha fals. d-ri ... diss. – Toshkent, 2024. – B. 12.

2) “Hechqisi yo‘q” ma‘nosi, odatda, uzr so‘raganda “muammo emas” degan ma‘noda qo‘llaniladi:

A: 미안해요. [mianheyo] Kechirasiz.

B: 괜찮아요. [gwenchhanayo] Hechqisi yo‘q.

3) “Mayli, bo‘ladi” ma‘nosida taklif yoki iltimosga javob tariqasida ishlatilib, ruxsat berish yoki qabul qilishni anglatadi:

A: 여기 앉아요. [yogi anjado dweyo] Bu yerga o‘tirsam bo‘ladimi?

B: 네, 괜찮아요. [ne, gwenchhanayo] Ha, bo‘ladi.

4) “Rad etish” ma‘nosida “yoq, rahmat”ni ifodalaydi. Ba‘zan muloyim rad javobi sifatida ishlatiladi:

A: 커피 드릴까요? [kophi tirilkkayo?] Sizga qahva beraymi?

B: 괜찮아요. [gwenchhanayo] Yo‘q, rahmat / kerak emas.

Yuqorida qayd etilgan ma‘nolardan tashqari 괜찮아요 [gwenchhanayo] iborasi ayrim nutq vaziyatlarida teskari ma‘nolarni anglatib, chalkashlikni keltirib chiqaradi. Masalan:

A: 봉투 괜찮아요? [bongtu gwenchhanayo?] Paket kerak emasmi?

B: 네 괜찮아요. [ne, gwenchhanayo] Yo‘q, kerak emas.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, bu o‘rinda o‘zbek tili sohibi 괜찮아요 [gwenchhanayo]ni aslida “ha, kerak” deb tushunadi.

Yoki:

A: 물 드세요? [mul tuseyo?] Suv ichasizmi?

B: 괜찮아요. [gwenchhanayo] Shart emas.

O‘zbek fikrlash tarzining mantig‘iga ko‘ra, mazkur holatda “bo‘ladi, mayli” degan ma‘no anglashiladi.

Tahlil va natijalar. Koreys tili o‘rganuvchisi bu o‘rinda chalg‘ib, iboraning “yo‘q, kerak emas” yoki “shart emas” degan ma‘nolari mavjudligini xayoliga ham keltirmaydi

va uni “ha, kerak” yoki “ha, ichaman” ma‘nolarida qo‘llayveradi. Natijada, pragmatik to‘siqning yuzaga kelishiga sababchi bo‘ladi.

Demak, “so‘zlovchi tomonidan til birliklarining nome‘yoriy holatda qo‘llanilishi, muloqot ishtirokchilarining yosh, jins, bilim, tajriba, ixtisoslik, til yoki milliy xususiyatlariga ko‘ra o‘zaro farqlanishi, tinglovchining kontekst yoki nutq vaziyatida qo‘llanilayotgan ifoda, nazarda tutilayotgan propozitsiya mazmuni yuzasidan yetarli bilimga/ma‘lumotga ega emasligi, noqulay nutq vaziyati va sharoiti kabilar kommunikativ muvaffaqiyatsizlikka sabab bo‘luvchi pragmatik to‘siqlardir”².

Koreys tilida 괜찮아요 [gwenchhanayo] iborasi savol shaklida ham keng qo‘llaniladi. Misollarga murojaat qilamiz:

몸이 괜찮아요? [momi gwenchhanayo?] O‘zingizni yaxshi his qilyapsizmi? / Mazangiz yaxshimi?

이 시간 괜찮아요? [i shigan gwenchhanayo] Bu vaqt sizga qulaymi?

내일 괜찮아요? [neil gwenchhanayo?] Ertaga bo‘ladimi?

괜찮아요 [gwenchhanayo] iborasining qo‘llanilishida nutq darajalari o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ma‘lumki, koreys tilida hurmat shakllari juda muhim o‘rin egallaydi. Odatda, 괜찮아요 [gwenchhanayo] o‘rta darajadagi nazokat shakli hisoblansa-da, uning turli darajadagi qo‘llanish shakllari mavjud. Masalan, 괜찮아 [gwenchhana] norasmiy muloqotda, 괜찮아요 [gwenchhanayo] odob doirasidagi muloqotda, 괜찮습니다 [gwenchhanseumnida] shakli esa rasmiy muloqotda ishlatiladi.

괜찮아요 [gwenchhanayo] iborasi 괜찮지 않아요 [gwenchhanji anayo] yoki 안 괜찮아요 [an gwenchhanayo], ya‘ni “yaxshi emas”, ‘joyida emas” ma‘nolarida inkor shaklida ham qo‘llaniladi. Misollarga e‘tibor qaratamiz:

몸이 안 괜찮아요. [momi an gwenchhanayo] O‘zimni yaxshi his qilmayapman.

² Atamuradov Sh. O‘zbek-turk muloqot madaniyatida pragmatik to‘siqning ifodalanishi: Filol. fan. bo‘yicha fals. d. ... diss. – Toshkent, 2024. – B. 12.

그건 괜찮지 않아요. [gugon gwenchhanji anayo] Bu yaxshi emas/ bu to‘g‘ri emas.

Qayd etilgan shakllar orasida kundalik muloqotda 안 괜찮아요 [an gwenchhanayo] ko‘proq qo‘llaniladi.

Lingvomadaniy interferensiyaning assotsiativ komponenti ko‘pincha baholash komponenti bilan birga kelib, nutqdagi leksik birliklar mazmuniga mantiqiy xususiyatga ega bo‘lgan yangi baholarini ko‘chirishni ifodalaydi. U odatda, “yaxshi-yomon-neytral” tizimida voqelanadi va leksik birliklar konnotatsiyasidagi o‘zgarishlarga olib keladi. Natijada meliorativ so‘zlar peyorativ so‘zlarga, yoki aksincha, peyorativ so‘zlar meliorativ so‘zlarga aylanadi. Ko‘pincha, bir lingvomadaniyat vakillarining boshqasiga nisbatan salbiy yoki ijobiy munosabati boshqalar uchun tushunarsiz bo‘ladi³. Mazkur fikrni quyidagi misollar bilan quvvatlash mumkin:

A: 밥을 먹어요? [bably mogoyo?] Ovqat yeysizmi?

B: 괜찮아요 [gwenchhanayo] Yoq, yemiyan.

Aslida boshqa lingvomadaniyat vakili bu savolga “Mayli” yoki “Ha yeyman” deb javob beradi.

A: 도와 드릴까요? [dowa deurilkkayo?] Yordam beraymi?

B: 괜찮아요 [gwenchhanayo] Shart emas, rahmat.

Mazkur misoldagi savolga koreys tili sohibi “Shart emas, rahmat” deb javob qaytarsa, boshqa madaniyat vakili “Yo‘q

demasdim” yoki “Mayli” deb javob berishi mumkin.

Xulosa. Tillararo interferensiya madaniyatlararo muloqot bilan yondosh bo‘ladi va uning barcha sathlarida namoyon bo‘ladi. Muayyan sathlarning biridagi buzilish butun muloqotga ta‘sir qilishi va nafaqat kommunikativ tushunmovchiliklarga, balki kommunikativ muvaffaqiyatsizlikka, boshqa madaniyatga nisbatan hurmatsizlikka yoki uni butunlay rad etishga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, pragmatik to‘siq masalasini har bir milliy til doirasida, shuningdek, turli tillarni o‘zaro qiyoslash-chog‘ishtirish orqali tadqiq etish turli madaniyat vakillarining nutqiy va kommunikativ faoliyati bilan bog‘liq holatini aniq tasavvur etish, shaxslararo va millatlararo munosabatlarda anglashilmovchilik va to‘qnashuvlarni minimallashtirish va bartaraf etishga ko‘maklashadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Atamuradov Sh. O‘zbek-turk muloqot madaniyatida pragmatik to‘siqning ifodalanishi: Filol. fan. bo‘yicha fals. d-ri ... diss. – Toshkent, 2024. – B. 12.
2. Atamuradov Sh. O‘zbek-turk muloqot madaniyatida pragmatik to‘siqning ifodalanishi: Filol. fan. bo‘yicha fals. d-ri ... diss. – Toshkent, 2024. – B. 12.
3. Тимачев П. В. Лингвокультурная интерференция как коммуникативная помеха (на материале английского языка): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2005. – С. 11.



³ Тимачев П. В. Лингвокультурная интерференция как коммуникативная помеха (на материале английского

языка): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2005. – С. 11.

MUNDARIJA

07.00.00 - "TARIX"

<i>Elmurodov Jonibek Akbar o'g'li</i>	QOZOG'ISTONNING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BILAN MADANIY-GUMANITAR HAMKORLIGIDA MADANIY-DIPLOMATIK TADBIRLAR ROLI	11
<i>Xolmurodov Doniyor Baxtiyor o'g'li</i>	O'ZBEKISTON VA QIRG'IZISTON RESPUBLIKALARI MADANIY- GUMANITAR HAMKORLIGI TARIXIGA DOIR	14
<i>Atayeva Dilfuza Pulatovna</i>	GENDER TENGLIK VA OILA MASALALARI BO'YICHA RESPUBLIKA KOMISSIYASI TOMONIDAN AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLARNING XOTIN-QIZLAR HUQUQ VA MANFAATLARINI HIMOYA QILISHDAGI XIZMATI	24
<i>Пахратдинов Ажунияз Қуралбаевич</i>	ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ ЎЗБЕКЛАРНИНГ НИКОҶ ТЎЙИ МАРОСИМЛАРИДА ФАРЗАНД ТИЛАШ АНЪАНАЛАРИ	57
<i>Vobojonov Behruz Bahodir o'g'li</i>	KESH VOHASIDAGI QOYATOSH TASVIRLARIDA AKS ETGAN QO'L IZLARINING SEMANTIK TALQINI VA IBTIDOY DINIY TASAVVURLAR	69
<i>Raimov Abdullo Yuzboyevich</i>	O'ZBEKISTONDA YILQICHILIK SOHASINING SOVET HOKIMIYATI AGRAR VA KOLXOZLASHTIRISH SIYOSATI BOSIMI OSTIDA RIVOJLANISHI TARIXI (1925–1991-YILLAR)	76
<i>Mardanov Jasurbek Davran ug'li</i>	XIX–XX ASRLAR TARIXSHUNOSLIGIDA BUXORO AMIRLIGINING IJTIMOY-SIYOSIY VA MADANIY JIHATDAN O'RGANILISHI	114
<i>Axmedov Baxriddin Hoshimovich</i>	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA HARBIIY SUDLARINING MUSTAQIL ORGAN SIFATIDA SHAKLLANISHI (1991-2000-yillar misolida)	229
<i>Maxamadaliyev Lutfillo</i>	SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TABIIY FANLARDA OLIB BORGAN IZLANISHLARINING XX ASR TURK TARIXSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI	95

09.00.00 - "FALSAFA"

<i>Djurayev G'olibjon Raimjonovich</i>	TIZIMLI-SINERGETIK YONDASHUVNING YOSHLAR BILISH FAOLIYATIDAGI METODOLOGIK ROLI	8
<i>Akramov G'iyosiddin Najmiddin o'g'li</i>	JAMIYAT BARQARORLIGI VA DAVLAT LEGITIMLIGINI MUSTAHKAMLASHDA IJTIMOYIY CHETLASHUVNI KAMAYTIRISHNING IJTIMOYIY-FALSAFIY MEXANIZMLARI	46
<i>Abdullayev Baxodirjon Maxamadjonovich</i>	MEHNAT MIGRATSIYASINI BOSHQARISHDA UNIFIKATSIYA VA "ANDIJON MODELI": IJTIMOYIY-IQTISODIY TRANSFORMATSIYA VA INSTITUTSIONAL YONDASHUV	103
<i>Babaxodjayeva Lola Maratovna</i>	O'ZBEKISTON IJTIMOYIY-MADANIY MODERNIZATSIYASI SHAROITIDA MA'NAVIY YUKSALISHNING IJTIMOYIY-FALSAFIY MEXANIZMLARI VA ASOSLARI	200
<i>Xoliqulov Asliddin Habibulloyevich</i>	MA'NAVIYAT SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA MILLIY, TARIXIY MANBALARDAN FOYDALANISHNING O'RNI	203
<i>Yulchiyev Avazbek Maxamadjonovich</i>	IJTIMOYIY TEXNOLOGIYALAR HAQIDAGI G'OYALARNING SHAKLLANISH EVOLYUTSIYASI	206
<i>Rahmatov Erkin Tagaymuradovich</i>	ALOUDDIN ATTOR HIKMATLI SO'ZLARINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI	209
<i>Abdulfattayeva Shahrizoda Shuhratbek qizi</i>	MUSTAFO KOMILNING "ASH-SHAMSU MASHRIQOT" ASARIDAGI FALSAFIY G'OYALAR TAHLILI	215
<i>Boygaziyev To'liqin Inatullayevich</i>	HUKMDOR SHAXSINING DAVLAT TIZIMIDAGI MARKAZIY O'RNI	218

10.00.00 - "FILOLOGIYA"

<i>Baisov Axmad Sabijonovich</i>	XURSHID DO'STMUHAMMAD VA JAMES JOYCE ASARLARIDA BADIYIY PSIXOLOGIZM HAMDA ZAMON-MAKON IFODASI	3
<i>Nazarov Utkirbek Allamberdiyevich</i>	MUHANDISLIK SOHASIDA QO'LLANILADIGAN INGLIZCHA TERMINLARNING LINGVISTIK TAHLILI	17

<i>Abdullayeva Gulmira</i>	XAYRIDDIN SULTON IJODIDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR SIYMOSI	20
<i>Atajanova Nilufar Fayzullayevna</i>	OMON MATJON SHE'RIYATIDA PEYZAJ TASVIRI	28
<i>Musaev Erkin Xalilovich</i>	ГЛАГОЛЫ ЖЕЛАНИЯ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ И.С.ТУРГЕНЕВА: СЕМАНТИКО-ПРАГМАТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	31
<i>Musayeva Varro Muminjonovna</i>	RUS VA O'ZBEK TILLARIDAGI FORMA YASOVCHI AFFIKSLARNING PRAGMATIK POTENSIALI	35
<i>Turdimuratova Abadan Baymuratovna</i>	QORAQALPOQ "GORO'G'LI" EPOSINING NASHR ETILISH BOSQICHLARI VA PUBLIKATSIYA JARAYONINING ILMIY XUSUSIYATLARI	39
<i>Raximova Arofatxon</i>	QARINDOSHLIK ATAMALRINING BOSHQA TURKIY TILLAR BILAN QIYOSIY TAHLILI	49
<i>Sidirova Janar Umirbekovna</i>	ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКИЕ ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИМЕНЕНИЕМ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ	53
<i>Vafoeva Mixayuo, Kayumov Dilmurod</i>	IJOBIY MUNOSABAT IFODALOVCHI AYRIM EMOTIV FRAZEOLOGIK SINONIMLAR HAQIDA	60
<i>Babaqulova Oydin Xayrullo qizi</i>	INGLIZ TILSHUNOSLIGIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O'RGANILISHI	65
¹ <i>Usmanova Shoira</i> ² <i>Qutbiddinova Moxiraxon</i>	KOREYS TILIDA "GWENCHHANAYO" (관찰ாய) IBORASINING QO'LLANILISHIDA PRAGMATIK TO'SIQNING YUZAGA CHIQISHI	72
<i>Elmuratova Ozoda Maratovna</i>	ДЕТЕРМИНОЛОГИЗАЦИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКИ В СОВРЕМЕННОМ РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ОСОБЕННОСТИ СЕМАНТИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ И ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ	83
<i>Rasulova Zamira Rasulovna</i>	ГОСТЕВОЙ ЭТИКЕТ И СИСТЕМА ЦЕННОСТЕЙ В ЗЕРКАЛЕ РУССКОЙ И КАРАКАЛПАКСКОЙ ПАРЕМИОЛОГИИ	86
<i>Nurulloeva Farangiz</i>	КОГНИТИВНЫЕ МЕХАНИЗМЫ МЕТАФОРЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ	89
<i>Muratbaeva Aziza Dauletbaevna</i>	ФУНКЦИИ И ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОККАЗИОНАЛИЗМОВ В СОВРЕМЕННОЙ РУССКОЙ ПЕРИОДИЧЕСКОЙ ПЕЧАТИ	92
<i>Kuziboeva Roxila Sherkulovna</i>	ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО	106
<i>Kuziboeva Roxila Sherkulovna</i>	ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО	109
<i>Ataev Bexruzбек Uktambekovich</i>	САМООБМАН КАК ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ПРИЁМ В ЛИРИКЕ	112
<i>Maratova Oltinoi Anvar qizi</i>	NEMIS TILINI O'QITISHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUVNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI	115
12.00..00 – "YURIDIK FANLAR"		
<i>Ismoilov Umirbek Ulug'bek o'g'li</i>	EKOLOGIK HUQUQ VA INSON HUQUQLARINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI	42
<i>No'monov Qodirjon Voxodirjon o'g'li</i>	GLOBALASHUV SHAROITIDA MIGRATSIYA JARAYONLARIDA HUQUQIY MADANIYATNING IJTIMOY-FALSAFIY TRANSFORMATSIYASI: G'ARB VA SHARQ TAJRIBASI SINTEZI	99
¹ <i>Atamirzayev Ibroxim</i> ² <i>Musayev Hamzahon</i>	YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA YOSHLAR JINOYATCHILIGINING OLDINI OLISH MASALALARI	170
<i>Rahimov Nodirbek Mutalliyevich</i>	FIRIBGARLIKKA QARSHI KURASHNING MILLIY VA XALQARO HUQUQIY ASOSLARI	173
<i>Mizarov Dilmurod Vaxobbayevich</i>	HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR FAOLIYATINING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI	176
13.00.00 – "PEDAGOGIKA"		
<i>Ergashboyev Baxtiyor Mirzamahmudovich</i>	O'ZBEK XALQ CHOLG'ULARI IJROSIDA XALQ KUYLARI VA BASTAKORLAR ASARLARINI YOSHLAR ONGIGA SINGDIRISH	79
19.00.00- "PSIXOLOGIYA"		